O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

B.A.XASANOV, A.A.XASHIMOV, A.B.MUXAMETOV, A.A.ABDUVOHIDOV

BUXGALTERIYA HISOBI

Darslik

Oliy ta’limning 5230100 – “Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)” va 5230200 – “Menejment (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)” bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari uchun

“Sharq” nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
TOSHKENT – 2021

Mualliflar:
Xasanov Baxodir Akramovich – i.f.d., professor
Xashimov Akram Abdievich – i.f.d., professor
Muxametov Abubak Baboevich – i.f.n., dotsent, CAP
Abduvohidov Akmal Abdulazizovich – katta o‘qituvchi

Buxgalteriya hisobi: oliy ta’limning 5230100 – “Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)” va 5230200 – “Menejment (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)” bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari uchun darslik / B.A.Xasanov, A.A.Xashimov, A.B.Muxametov, A.A.Abduvohidov// prof. B.A.Xasanov tahriri ostida. – T.: 2021. – 720 b.

Mualliflar buxgalteriya hisobini uyg‘unlashtirish va xalqaro standartlashtirishning zarurligi va shart-sharoitlari, O‘zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobini isloh qilishning zarurligi va maqsadlari, asosiy tamoyillarini, uning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi rolini batafsil bayon etgan va tahlil qilganlar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida buxgalteriya hisobi fanining predmeti va usullari, pul mablag‘lari va hisob-kitoblar, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar, investitsiyalar, materiallar, mehnat va unga haq to‘lash, xarajatlar, mahsulot, tovar (ish, xizmat)lar va ularni sotish, kapital, fondlar va moliyaviy natijalar, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar hisobi, moliyaviy hisobot, boshqaruv hisobini tashkil etish, byudjetlashtirish va xarajatlarni nazorat qilish etarli darajada bayon etilgan.

Darslikdagi barcha materiallar yangi huquqiy-me’yoriy hujjatlar, jumladan, buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlari asosida yoritilgan.

Darslik 5230100 – “Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)” va 5230200 – “Menejment (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari, magistrantlar va o‘qituvchilar uchun mo‘ljallangan. Shuningdek, kitob amaliyotdagi buxgalter-iqtisodchilar, tadbirkorlar va korxona rahbarlari uchun ham foydali bo‘ladi deb o‘ylaymiz.

Taqrizchilar:

Qo‘ziev I.N. – Toshkent moliya instituti, “Byudjet hisobi va g‘aznachilik ishi” kafedrasi mudiri, i.f.d., professor.

Djumanov S.A. – Toshkent moliya instituti, “Buxgalteriya hisobi” kafedrasi dotsenti v.b., i.f.f.d. (PhD).

© B.A.Xasanov, A.A.Xashimov, A.B.Muxametov, A.A.Abduvohidov, 2021.
© “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2021.

Buxgalteriya hisobi – bu moliyaviy savodxonlik va ayni paytda raqamlarni oʻqiy olish san'atidir. Agar siz oʻz biznesingizni yoʻlga qoʻymoqchi yoki investitsiyalar bilan shugʻullanmoqchi boʻlsangiz, albatta ushbu san'atni oʻzlashtirishingiz shart.
Robert Toru Kiyosaki

KIRISH

2017-2021 yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasi va Ma'muriy islohotlar kontseptsiyasini amalga oshirish borasida belgilab berilgan chora-tadbirlar orasida eng zarur iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalarda (sanoat, transport, energetika va boshqalar) sogʻlom raqobat muhitini rivojlantirish, davlat va tijorat manfaatlari toʻqnashuvini bartaraf etishga qaratgan holda, boshqaruv tizimini takomillashtirish; xususiy sektor samarali faoliyat koʻrsatayotgan sohalarda davlat ishtirokidagi tijorat tashkilotlarini tuzishga cheklov choralarini belgilash va amaldagi korxonalarni qayta tashkil etish, shuningdek, sogʻlom raqobat muhitining rivojlanishini cheklayotgan alohida xoʻjalik yurituvchi sub'ektlarga eksklyuziv huquqlar, individual imtiyozlar hamda preferentsiyalar berish amaliyotidan voz kechish; iqtisodiy faoliyatda, eng avvalo, davlat unitar korxonalarini tashkil etish va faoliyatini boshqarish, ishonchli boshqaruvchilar va davlatning ishonchli vakillari vakolatlarini, ularning iqtisodiy va boshqaruv samaradorligini oshirish, birinchi navbatda, davlat aktivlarini boshqarish tizimining moliyaviy shaffofligi va samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat ishtirokidagi xoʻjalik yurituvchi sub'ektlarni boshqarishning korporativ mexanizmlarini rivojlantirish sohalarida davlat ishtirokining aniq bozor mexanizmlarini ishlab chiqish kabi masalalarga alohida urgʻu berilgan. Shundan kelib chiqqan holda, iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida harqanday tashkilotning asosiy vazifalaridan biri mavjud mehnat, moddiy va moliyaviy resurslardan toʻla va samarali foydalanish maqsadida tashkilotni boshqarishni takomillashtirishdir.

Ushbu darslik buxgalteriya hisobini tashkil etish, rejalashtirish va nazorat qilish kabi boshqaruv funktsiyalarini amalga oshirish masalalarini nazariy va amaliy jihatdan oʻrganishni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻyadi.

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotining xalqaro hamjamiyatga tobora chuqur integratsiyalashishi sharoitida buxgalteriya ishlarini xalqaro andozalar asosida tashkil etish va yuritishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu talablarni toʻlaligicha Oʻzbekiston Respublikasida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (International Financial Report Standards – IFRS) oʻtish yoʻli bilan amalga oshirish mumkin.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun buxgalteriya hisobi va hisobotini yanada rivojlantirish va takomillashtirish quyidagi asosiy yoʻnalishlar boʻyicha amalga oshirilishi rejalashtirilgan:

1) buxgalteriya hisobi va hisobotida hosil boʻladigan axborotlar sifatini oshirish;

2) IFRS ilovasi infratuzilmasini yaratish;

3) moliyaviy hisobotlarning shu jumladan buxgalteriya birlashmalari hisobidan sifat nazoratini mustahkamlash;

4) buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish va yuritish, moliyaviy hisobotlar auditi bilan shugʻullanuvchi mutaxassislarning kasbiy malakasini oshirish.

Oʻzbekiston buxgalteriya hisobi amaliyotiga IFRSni joriy etish uchun davlat organlari buxgalteriya hisobi va auditorlik professional jamoalari bilan birgalikda quyidagi vazifalarni hal qilishlari kerak boʻladi:

– milliy va xalqaro qoidalarga muvofiq moliyaviy hisobot tamoyillaridagi institutsional ziddiyatlarni bartaraf etish;

– buxgalterlar va hisobot foydalanuvchilari uchun IFRS professional ta'limni yoʻlga qoʻyish.

Qonunchilikda IFRSni faol qoʻllash muhim ahamiyatga ega. 1994 yil avgustda "Oʻzbekiston Respublikasining xalqaro amaliyotda qabul qilingan buxgalteriya hisobi va statistika tizimiga oʻtish Davlat dasturi" qabul qilindi (OʻzR 24.08.1994 y. 433-son VM qarori).